

NATIONAL IDEA AND IDEOLOGY-SOCIAL FACTOR OF DEVELOPMENT

Karimov Elmurod Salimjonovich
Teacher of Andijan State University

Annotation: The article is a scholarly article on a topic such as the struggle of different views to dominate the ideological field, as the struggle for the human mind and heart is gaining momentum today.

Keywords: Person, consciousness, ideology, ideological upbringing, idea, belief, national identity, ideological process.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ И ИДЕОЛОГИЯ-СОЦИАЛЬНАЯ ФАКТОР РАЗВИТИЯ

Каримов Эльмурод Салимжонович
Преподаватель Андижанского государственного университета

Аннотация: Статья представляет собой научную статью на такую тему, как борьба разных взглядов за господство в идеологическом поле, поскольку борьба за человеческий разум и сердце сегодня набирает обороты.

Ключевые Слова: личность, сознание, идеология, идеологическое воспитание, идея, вера, национальная идентичность, идеологический процесс.

MILLIY G'OYA VA MAFKURA-IJTIMOIIY TARAQQIYOT OMILI

Karimov Elmurod Salimjonovich
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi kabi mavzuda yoritilgan ilmiy maqola hisoblanadi.

Tayanch so'zlar: inson, ongi, mafkura, mafkuraviy tarbiya, g'oya, ishonch, milliy o'zlik, mafkuraviy jaroyon.

Milliy g'oya va mafkurani targ'ib qilishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham bu jarayon milliy g'oyasining xususiyatlari bilan bog'liq. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Aslini olganda, globallashuv jarayoni bo'lmasa, milliy g'oyaga ham ehtiyoj oshmas edi. Chunki globallashuv bo'lmaganda har bir xalq va millatning

ma'naviyati, rivojlanish yo'li o'zicha mavjud bo'lar va imkoniyat darajasida rivoj topardi. Tashqi ta'sir va tahdidning yo'qligi esa milliy g'oya va mafkuraga ehtiyojni ham dolzarblashtirmas edi.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi tabiiy, albatta. Bunga e'tiqod umumiylikiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga bo'layotgan xatti-harakatlarni misol keltirish mumkin.

Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik, huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq.

«Men, - deb yozadi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, - Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir»¹ degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir». Buning sababi hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash nihoyatda murakkab tus olgan. Bu geopolitika va globallashuv jarayonlari bilan qo'shib, uyg'unlashib ketmoqda.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi (yer sharini qamrab olish, dunyo miqyosidagi, umumiy). - g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga yer yuzining barcha mintaqalari tortilganligini, mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida o'tkazilayotgan chuqur islohotlar, yangilanishlarning yetakchi yo'nalishlaridan biri ma'naviyat, ma'rifat va mafkura sohasidagi keng qamrovli tadbirlardir. Bu boradagi ishlar O'zbekistonni kelajakda jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirishdek ezgu maqsadimizga xizmat qiladi, har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, iste'dodini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, barkamol inson bo'lib yetishishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Mamlakatimizda inson manfaatlari bilan bog'liq masalalarni hal etishda bizning saylovoldi dasturimizdan joy olgan, hozirgi kunda ishlab chiqilayotgan maqsadli dasturlar muhim o'rin tutadi. Bu dasturlar odamlarning turmush darajasi va sifatini yanada oshirishni ta'minlashga qaratilgan".² Shu maqsadda mamlakatimiz Hukumati Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati bilan birgalikda va jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar ishtirokida 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakat strategiyasi ishlab chiqildi.

Ushbu strategiyada davlat qurilishi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va ijtimoiy sohani rivojlantirish, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash bo'yicha eng dolzarb vazifalar aniq belgilab beriladi."

¹ Karimov I. Milliy istiqlof mafkurası – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. -T. :O'zbekiston, 2000.

² Sh.M.Mirziyoev 2016-yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasi

Biz qurayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati ma'naviyati va madaniyati bo'm-bo'sh joyda paydo bo'lmaydi, balki avlod-ajdodlarimizdan, uzoq tarixiy o'tmishimizdan asrlar davomida xalqimiz asrab-avaylab kelayotgan boy ma'naviy-madaniy merosimiz zaminida shakllanadi.

Yangi demokratik jamiyatga o'tish – hayotiy yetuklik va sabr-matонатni sinovdan o'tkazuvchi o'ziga xos imtihondir. Bunda ma'naviy bo'shliqqa mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu sabali mustaqillik yillarida ma'naviy-madaniy merosimizni tiklash, bu merosdan yangi avlodni tarbiyalashda muhim vosita sifatida foydalanish hozirgi taxlikali zamonda dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu borada mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2015 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Bugungi kunda qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishgan bo'lsa – bu Janubiy Koreya yoki Yaponiya bo'ladimi, Yevropa davlatlari bo'ladimi – bularning barchasidan o'rganish kerak. Bu borada biz uchun hech qanday mafkuraviy cheklashlar yo'q. Biz uchun yagona mafkura – bu O'zbekistonning taraqqiyoti, O'zbekistonning ravnaqi, O'zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligidir."³

Jamiyatimiz hayotida, kishilarimiz ongi va qalbida milliy g'oyani shakllantirib, rivojlantirishda o'tmish madaniy meros va milliy ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash hamda o'rganib, o'zlashtirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat va milliy g'ururni shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasidir. "Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish"⁴.

Ushbu vazifani to'la ro'yobga chiqishida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va ma'naviy merosni o'rganib, o'zlashtirish, ularni ma'naviy taraqqiyotimizdagi o'rnini teran anglab yetish muhim o'rin tutadi.

³ Islom Karimov 2015 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqida

⁴ Karimov I.A. Hushyorlikka da'vat.Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T. 8. - T.:O'zbekiston, 2000. –B. 33.